

O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA “TA’LIM TIZIMI” KONSEPTUAL SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLAR TAHLILI

Astonova Go‘zalxon Raxmonaliyevna

FDU o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek va nemis tillarida uchraydigan ayrim leksemalarning semantik mohiyati ikki til izohli lug‘ati asosida qiyoslangan, misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktab, kognitiv tuzilma, bilim, ko‘nikma, leksema, ta’lim va tarbiya, ta’lim siyosati.

Annatation

In the article, the semantic meaning of some lexemes found in the Usbek and German languages is compared on the basis of the explanatory dictionary of the two languages, and illustrated by examples.

Keyword: school, cognitive structure, knowledge, skill, lexeme, education and upbringing, education policy.

Аннотация

В статье на основе толкового словарях двух языков сравнивается систематическое значение некоторых лексем, встречающихся в узбекском и немецком языках, и иллюстрируется примерами.

Ключевые слова: школа, когнитивная структура, знание, умение, лексема, образованию и воспитание, образовательная политика.

Lingvokonseptologiya –konsept va uning tildagi ifodasini o‘rganuvchi fan. Konsept – olamdagi g‘oya, ob‘yekt yoki hodisa bilan bog‘liq bilimlarni tartibga soluvchi kognitiv tuzilma. Konseptlarning ongda qanday shakllanishi, ularning tilda qanday ifodalanishi, buning uchun qanday lingvistik vositalardan foydalanishni o‘rganish lingvokonseptologiyaning asosiy ob‘yekti hisoblanadi.

Nemis tilida Germaniya ta'lim madaniyatining boyligi va xilma-xilligini aks ettiruvchi "ta'lim tizimi" bilan bog'liq ko'plab asosiy konseptlar mavjud. Quyida biz bir nechta asosiy konseptlarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Masalan,

Bildung. Nemis tilining Langenscheidet nomli izohli lug'atida Bildung leksemasiga quyidagicha izoh beriladi. Bildung die; -; nur Sg **1**. Das (durch Erziehung) erworbene Wissen u. Können auf verschiedenen Gebieten (auch das soziale Normen betrifft) e-e umfassende, höhere, humanistische lückenhafte B. besitzen, haben; ein Mensch mit/von B. : *die Eltern u. die Schule vermitteln dem Jugendliche die erforderliche B.* **2**. Der Prozess, bei dem ein Mensch (durch Erziehung u. Ausbildung) Wissen u. Können auf verschiedenen Gebieten erwirbt e-e höhere B. erhalten, genießen: *Jeder Mensch hat das Recht auf B.* K-: **Bildungs-, -anstalt, -drang, -eifer, -politik, -reise**, K: **Berufs-, Erwachsenen-, Hochschul-, schul-[1]** (ta'lim; -; faqat Birlikda **1**. Turli sohalarda (shuningdek, ijtimoiy me'yorlarga taaluqli) egallagan bilim va ko'nikmalar (ta'lim orqali) e-e har tomonlama, yuqori, insonparvarlik bo'yicha to'liq T. ega; T.ga ega bo'lgan shaxs: ota-ona va maktab tomonidan yushlarga ta'minlab beriladigan T. bilan ta'minlaydi. **2**. Shaxsning (ta'lim va ta'lim orqali) turli sohalarda bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish jarayoni, bahramand bo'ladi, rohat oladi: Har bir shaxs T. olish huquqiga ega: ta'lim muassasasi, ta'lim shijoati, ta'lim siyosati, ta'lim sayohati, K: kasbiy ta'limi, kattalar ta'limi, universitet ta'limi, maktab ta'limi)

Ta'lim -[o'rgatish, o'qitish, ilm berish; ma'lumot] **1** Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayonini, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. *Ta'lim va tarbiya ajralmas egizaklar bo'lib, ma'lumot ularning totli mevasidir.* R. Usmonov, Odoynoma. *Bizga ta'lim berar har kun o'qituvchimiz, turli fanni o'qib o'sar ong va kuchimiz.* I. Muslim

2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim. *Boshlang'ich ta'lim. Oliy ta'lim. Madrasa ta'limi.* E. Vohidov, Muhabbatnoma

3. Tarbiya, odob- ahloq. *Ta'limi yo'q bola. Arabboy qancha o'qisa ham, uning qiliq va gapirishi, yurish-turishi maktabda ta'lim ko'rgan kishi emas, balki chapani aravakash kishini eslatib turar edi.* P. Tursin, O'qituvchi.

4. s.t. *Ko'rsatma, yo'l-yo'riq, o'rgatuv. Arzi xola Qutbi otinning haligiday ta'limidan gangib qoldi.* R. Azizxo'jayev, To'lg'oq yemagan juvon.[Sidiqjon] *Hech kimga qaramay, ketmonni qay xilda chopish to'g'risida Mallavoy aka bergan ta'limga ham qaramay, kuyib-pishib ishladi.* A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.[2]

Ko'rinadiki, o'zbek tilining izohli lug'atida ta'lim leksemasiga atroflicha izoh beriladi. Nemis tiling izohli lug'atida ta'lim olishda rohatlanish, ta'limda ona-onaning ham xissasi borligi va ta'lim bilan bog'liq turli leksemalar mavjudligi bilan o'zaro farqlangan. O'zbek tilining izohli lug'atida esa ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi alohida ta'kidlanib, mazkur jihati bilan o'zaro farqlangan.

Schulsystem: Bu atama ta'lim tizimiga tegishli bo'lib, boshlang'ich maktab , asosiy maktab, kasbga yo'naltirilgan maktab, gimnaziya, to'plam maktab (Grundschule, Hauptschule, Realschule, Gymnasium va Gesamtschule), o'rta maktab (ta'lim yo'liga qarab Mittelschule yoki Gymnasium), shuningdek, institut, universitet va kasb-hunarga zonatilgan oliy maktablar ta'limini o'z ichiga oladi. Nemis ta'lim tizimining o'rta bo'g'ini turli ta'lim muassasalaridan iborat bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbek ta'lim tizimining o'rta bo'g'ini hisoblangan umumiy o'rta ta'limda boshlang'ich maktab ajratilmaganligi va birgina umumiy o'rta ta'lim deb nomlanishini bilishimiz mumkin. Shu o'rinda nemis ta'lim tizimining o'rta bo'g'inini tashkil etuvchi boshlang'ich maktab , asosiy maktab, kasbga yonaltirilgan maktab, gimnaziya, to'plam maktab Grundschule, leksemasining semantik mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Grundschule die Schule, in welche die Kinder die ersten vier Jahre gehen, Grundschullehrer, Grundschulunterricht (boshlang'ich maktab shunday maktabki, qaysiki bolalar 4 yil qatnaydigan. Boshlang'ich maktab o'qituvchisi, boshlang'ich maktab darsi). Ko'rinadiki, izohli lug'atda boshlang'ich maktab o'qituvchisi ham

ma'lum bir ma'lumotga ega bo'lgan shaxs bo'lish lozimligini ko'rishimiz mumkin. Boshlang'ich maktabda asosan umumiy fanlar o'qitilishi, boshlang'ich maktabni tamomlagandan so'ng qaysi o'quvchi qaysi maktab turida o'qishi kerakligini sinf rahbari hal qilishini Germaniya ta'lim tizimi maktablari uchun qo'llaniladigan qoidalardan bilishimiz mumkin. Boshlang'ich maktabda ishlaydigan sinf rahbari leksemasi muhim o'rin tutadi. Ozbek tilining izohli lug'atida esa quyidagicha izoh beriladi. *Boshlang'ich*. Quyi, birinchi bosqich. *Boshlang'ich sinf*. *Boshlang'ich ta'lim bilimlar poydevori hisoblanadi*. „*Fan va turmush*“. *Boshlang'ich ma'lumotni olgach, u o'qituvchilar tayyorlash kursiga o'qishga kirdi*. Gazetadan. *Bashoratni boshlang'ich maktabga berishning foydasi yo'q*. A. Muxtor, Opa-singillar.[3]

Biz quyida *Hauptschule*, *Realschule* leksemalariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Hauptschule die Schule, (die man nach der Grundschule) von der fünften bis zur neunten Klasse besucht, wenn man nicht eine höhere Schule Realschule, Gymnasium wählt Hauptabschluss, Hauptschullehrer).[4]

Hauptschule maktabi (boshlang'ich maktabdan keyin o'qiydigan) beshinchi sinfdan to'qqizinchi sinfgacha, agar siz oliy maktabni tanlamasangiz, *Realschule*, *Gymnasium* (asosiy malaka, o'rta maktab o'qituvchisi). *Realschule* eine Schule für Vorbereitung auf wirtschaftliche und technische Berufe. Wer die Realschule (nach der 10.Klasse) mit Erfolg beendet hat, macht eine Lehre oder kann auf die Fachoberschule gehen. *Realschule* - iqtisodiy va texnik kasblarga tayyorlash maktabi. O'rta maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan (10-sinfdan keyin) har bir kishi shogirdlik qiladi yoki texnikumga borishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati 28-bet
2. Dieter Götz. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. – Berlin: Langenscheidt, 2002. S 433.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 341- bet

4. Dieter Götz. Größwörterbuch. Deutsch als Fremdsprachen.-München, Wien. Langenscheidt, 2015. S 529.
5. 1.Акбарова, Ш. Ф. (2023). ЎЗБЕК НАСРИДА А. КАМЮ ТАЪСИРИ ВА ТАЛҚИНИ. *Scientific progress*, 4(4), 321-325.
6. 2. G‘aniyevna, A. S. (2023). TALABALARNING FRANSUZ TILIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *SO‘NGI ILMIIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(6), 311-315.
7. 3. Akbarova, S. G. (2023). TYPOLOGICAL SIMILARITY AND INTERACTION–AN ACTUAL PROBLEM OF COMPARATIVE LITERATURE. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*, 8(8), 19-22.
8. 4. Акбарова, Ш. (2022). Адабиётшуносликда талқин ва герменевтика масалалари. *Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке*, (1), 44-45.
9. Ахтямов А. Э. РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И ИХ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 131-135.
10. Ахтямов А. Э. СВОЙСТВА РЕКЛАМНОГО ТЕКСТА //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 128-130.
11. Ахтямов А. Э. РЕКЛАМНЫЕ ТЕКСТЫ И РАЗВЕРТЫВАНИЕ ТЕМЫ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 123-126
12. Ахтямов, А. (2023). SEVEN CRITERIA OF TEXTUALITY IN PRAGMALINGUISTIC ANALYSIS OF ADVERTISING TEXTS. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 29(1), 206
13. Ахтямов А. Э. РАЗВЕРТЫВАНИЕ ТЕМЫ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ. *JOURNAL OF AGRICULTURE & HORTICULTURE*. – 2023. С.103-107.